


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 752,0 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2 688,9 mlrd so‘mni (102,5 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd so‘mni (87,1 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari - 33,8 mlrd so‘mni (101,7 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari - 29,2 mlrd so‘mni (76,3 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar) ning hajmi va o‘shish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘shish sur‘ati Yangiyo‘zor tumani (105,2 foiz), Xiva shahri (104,1 foiz), Qo‘shko‘pir (103,4 foiz) tumanida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Xonqa tumani (100,2 foiz) va Shovot tumanida (100,4 foiz) kuzatildi.


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat) larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida-11,5 foiz, Gurlan tumanida -10,7 foiz va Xiva tumanida -10,1 foizni tashkil etdi va Xiva shahri, Tuproqqal‘a tumani hamda Urganch shahri mos ravishda 0,4 foiz, 2,3 foiz va 4,2 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,4 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2022- yilning yanvar- mart oylarida 2 667,2 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 114,6 foizni va chorvachilik mahsulotlari 101,9 foizni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2022- yil yanvar- mart oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 92,3 foizini (2021- yil yanvar- mart oylarida – 91,6 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 5,1 foizi ishlab chiqarilgan (2021- yil yanvar- mart oylarida 5,9 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2,6 foizi (2021- yil yanvar- mart oylarida – 2,5 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2022- yilning yanvar- mart oylarida 2 667,2 mlrd so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 106,0 mlrd so'mga teng qismi yoki 4,0 foizi dehqonchilik, 2 561,2 mlrd so'mga teng qismi yoki 96,0 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2022- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Yangiariq tumani (14,3 foiz), Gurlan tumani (7,0 foiz) va Bog'ot tumanida (5,8 foiz) yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Tuproqqal'a tumani, Urganch va Xiva shaharlarida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilmaganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch va Xiva shahri, Tuproqqal'a tumanlarida (100,0 foiz), hamda Shovot tumanida (99,2 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumanida (11,6 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (99,1 va 97,9 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Yangiariq tumanida (11,1 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Tuproqqal‘a tumani (2,8 foizi) va Hazorasp tumanida (3,1 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangiariq tumanida (84,0 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xiva (0,3 foizi) va Gurlan (0,4 foizi) tumanlarida qayd etildi.



Dehqonchilik. 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 106,0 mlrd so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 4,0 foizini tashkil qildi. 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 114,6 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 50,1 mlrd so‘mni (106,5 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 18,8 mlrd so‘mni (112,3 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 37,1 mlrd so‘mni (131,6 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Hosil yig‘imi. 2022- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3 427 tonna sabzavot (103,4 foiz) yetishtirildi.




Chorvachilik. 2022- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 2 561,2 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 86,4 mlrd so‘mni (108,7 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 2 443,4 mlrd so‘mni (102,0 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 31,4 mlrd so‘mni (80,6 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)




2022 - yilning 1 - aprel holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,4 foizni (jami 949,8 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,3 foizni (360,1 ming bosh), qo‘y va echkilar 103,1 foizni (465,9 ming bosh), otlar 101,9 foizni (5,7 ming bosh), parrandalar 103,2 foizni (6044,8 ming bosh) tashkil qildi.

2022- yil 1- aprel holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,4 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,3 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 75,3 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni


| | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish sur'ati, %</i> |
|---|------------------|------------------------------|
| Yirik shoxli qoramol | 949,8 | 102,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 68,8 | 106,0 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 872,5 | 102,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 8,5 | 102,4 |
| ulardan: sigirlar | 361,1 | 102,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 28,3 | 111,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 329,0 | 101,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 2,8 | 103,7 |
| Qo'y va echkilar | 465,9 | 103,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 69,1 | 112,0 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 384,4 | 100,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 12,4 | 182,4 |
| Otlar, bosh | 5743 | 101,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 722 | 114,2 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 4977 | 100,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 44 | 141,9 |
| Parrandalar | 6044,8 | 103,2 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 875,5 | 113,5 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 3904,3 | 101,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1265,0 | 102,4 |

**2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

| | <i>miqdori</i> | <i>o'sish sur'ati, %</i> |
|---|----------------|----------------------------------|
| Go'sht (tirik vaznda), ming tonna | 38,6 | 101,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 0,9 | 101,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 37,5 | 101,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 0,2 | 104,5 |
| Sut, ming tonna | 210,8 | 101,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 9,9 | 119,5 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 199,5 | 101,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1,4 | 115,5 |
| Tuxum, mln. dona | 100,9 | 92,5 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 9,0 | 104,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 67,0 | 102,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 24,9 | 71,3 |
| Jun, tonna | 73 | 112,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 13 | 216,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 59 | 101,7 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1 | 100,0 |
| Qorako'l teri, dona | 1578 | 100,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 49 | 75,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida | 1529 | 101,1 |

2022- yilning yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 136,5 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 5,1 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2022- yilning 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 68,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 28,3 ming bosh sigir, 69,1 ming bosh qo‘y va echki, 722 bosh ot, 875,5 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2021 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 106,0 foizni, shu jumladan, sigirlar 111,4 foizni, qo‘y va echkilar 112,0 foizni, otlar 114,2 foizni, parrandalar 113,5 foizni tashkil qildi.


2022 - yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | <i>yanvar-mart</i> | | | | <i>2021-yanvar-mart oylariga nisbatan foiz hisobida</i> |
|-------------------------|--------------------|---|------------------|---|---|
| | <i>2021- yil</i> | | <i>2022- yil</i> | | |
| | <i>tonna</i> | <i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i> | <i>tonna</i> | <i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i> | |
| Sabzavot | 122 | 4,4 | 129 | 3,8 | 105,7 |
| Go'sht, tirik vaznda | 881 | 2,3 | 897 | 2,3 | 101,8 |
| Sut | 8 331 | 4,0 | 9 952 | 4,7 | 119,5 |
| Tuxum, <i>ming dona</i> | 8 631 | 7,9 | 9 047 | 8,9 | 104,8 |
| Jun, <i>tonna</i> | 6 | 9,2 | 13 | 17,8 | 2,2 m. |
| Qorako'l, <i>dona</i> | 65 | 4,1 | 49 | 3,1 | 75,4 |


2022 - yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot (*tonna*)


Jami viloyat bo'yicha 3 427




**Yirik shoxli qoramollar
(bosh) Jami viloyat bo'yicha
949 776**




**shu jumladan,
sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
360 062**



**Qo'ylar va echkilar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
465 867**




**Parrandalar (ming bosh)
Jami viloyat bo'yicha
6044,8**




2022 - yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Go'sht (ming tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 38,6




Sut (ming tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 210,8




Tuxum (mln dona)
Jami viloyat
bo'yicha 100,9



Jun (tonna)
Jami viloyat bo'yicha 73



Baliq (tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 1318,4



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohaslarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.